



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 2 - fevral

98-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Angor tumani “Tallashqon” mahallasi hududida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga
mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, Angor tumani hokimining 2024-yil 17-yanvardagi 01/126-son xati hamda Angor tumani “Tallashqon” mahallasida yashovchi fuqaro Djabborov Kahramon Bo‘ronovichning 2024-yil 4-yanvar kuni notarial idora tomonidan tasdiqlangan reyestr 202401932000046-son bilan qayd etilgan rozilik arizasini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Angor tumani “Tallashqon” mahallasida yashovchi fuqaro Djabborov Kahramon Bo‘ronovichga tegishli Angor tumani “Tallashqon” mahallasi hududidan “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binosi” qurilishi uchun tuman hokimining 2021-yil 8-maydagi Q-580-sonli qarori bilan ajratilgan jami 0.088 (880 kv.m) gektar yer maydoni bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Angor tumani hokimligi (Q.Mardonov) ikki kun muddatda hokimlik zaxirasidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari hisobiga olingan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtmanoma taqdim etsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov):

Angor tumani hokimligi buyurtmasiga asosan bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirsin;

zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarining tuman hokimligi hisobiga qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov) bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlari tuman mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e‘lon qilinsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov